

The study of foreign literature in the secondary school education system in Uzbekistan (on the example of Mark Twain's work)

Nurmakhambet AKINDIKOV¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2023

Received in revised form

10 September 2023

Accepted 25 October 2023

Available online

15 December 2023

Keywords:

English literature,
American regional studies,
linguistic materials,
extralinguistics,
culture,
tradition.

ABSTRACT

This article examines the cultural aspects of studying a foreign language, including English literature, American regional studies, and Russian (foreign) literature. Every person in modern society must understand the diversity of human cultures, respect other cultural traditions, and be able to see the valuable aspects of the culture of different peoples. These aspects can be taught to schoolchildren in philology classes in general education schools in the process of studying the subjects of the English language, English literature, foreign literature, and local history. The cultural aspect includes knowledge of extralinguistic and linguistic material. The extralinguistic content of the cultural aspect is information obtained from the manner of speech, history, geography, and traditions of the language being studied. Linguistic material consists of words and phraseological units with a national-cultural component, as well as texts. The article also pays attention to these needs.

2181-3701/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol1-iss6-pp22-27>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Senior Lecturer, Department of Innovative Educational Technologies and Pedagogy, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

O'zbekistonda o'rta maktab ta'lim tizimida xorijiy adabiyotning o'rganilishi (bolalar yozuvchisi Mark Tven ijodi misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ingliz adabiyoti,
Amerika mintaqashunosligi,
lingvistik materiallar,
ekstralingvistika,
madaniyat,
an'ana.

Ushbu maqolada muallif tomonidan chet tilini o'rganishning madaniy jihati ko'rib chiqiladi.

Изучение зарубежной литературы в системе среднего школьного образования Узбекистана (на примере произведений детского писателя Марка Твена)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

английская литература,
американское
регионоведение,
лингвистические
материалы,
экстралингвистика,
культура,
традиция.

В данной статье рассматривается культурологический аспект изучения иностранного языка, включая английскую литературу, американское регионоведение и русскую (иностранную) литературу. Каждый человек в современном обществе должен понимать многообразие человеческих культур, уважать другие культурные традиции и уметь видеть ценные стороны культуры разных народов. Эти аспекты можно преподавать школьникам на уроках филологии общеобразовательных школ в процессе изучения предметов английского языка, английской литературы, зарубежной литературы и краеведения. Культурологический аспект включает в себя знание экстралингвистического и лингвистического материала. Экстралингвистическое содержание культурологического аспекта представляет собой информацию, полученную из манеры речи, истории, географии и традиций изучаемого языка. Лингвистический материал состоит из слов и фразеологизмов с национально-культурным компонентом, а также текстов. В статье также уделяется внимание этим потребностям.

KIRISH

Tarixiy va adabiy tamoyil asosida qurilgan chet tili adabiyoti til o'rganishdagi bilimlar tizimini shakllantirishga yordam beradi va maktab o'quvchilari uchun gumanitar ta'lim tizimining bir qismidir. Chet tilidagi matnni idrok etishning qiyinligi kirish darsini talab qiladi, bu dars davomida talabalarni asar matniga kirishga tayyorlash uchun umumiy hududiy fon yaratiladi. Kirish darslari asarga qiziqish uyg'otish va uni idrok etish uchun fikrlashni shakllantirishga yordam beradi, muallif, asar davri va o'zbek tiliga

tarjimalari bilan tanishtiradi. Ushbu darslarda madaniy va mintaqaviy lugʻat kiritiladi, bu esa asarni tushunishni qiyinlashtiradi.

Keyinchalik ingliz adabiyoti darslarida chet tilidagi badiiy matnni oʻqish boʻyicha mashqlarni tashkil etish va uning mazmunini oʻzlashtirish ustida ishlash metodikasi yaratilgan boʻlib, shuningdek, badiiy matnni oʻzlashtirishga qaratilgan mashqlar tizimi taklif qilingan. Asar matni ustida ishlash uslubi uning umumiy oʻziga xosligi, hajmi va bu asarning chet el adabiyoti darslarida oʻrganilganligiga bogʻliq. Lirikani idrok etishning qiyinligi uning oʻziga xos xususiyatlari bilan bogʻliq: aniq belgilangan voqea chizigʻining yoʻqligi, badiiy ifoda vositalaridan foydalangan holda tasvirning rivojlanishi va boshqalar. Shuning uchun ingliz va milliy adabiyotning tanish asarlaridan foydalanish, oʻrganilayotgan asarning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari va ularni qiyoslash ingliz asarlarini idrok etish jarayonini ancha osonlashtiradi va samaraliroq qiladi. Bolalar yozuvchisi Mark Tvenning “Geklberri Finning sarguzashtlari” hamda “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarlari misol qilib, ingliz va milliy adabiyot asarlarini qiyosiy tahlil qilish xususiyatlarini koʻrib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Chet tili fanida asarlar asl tilda oʻrganiladi. Shunga qaramay, asarning oʻzbek tili tarjimasiga murojaat qilish quyidagi maqsadlarni koʻzlagan muhim uslubdir: talabalarni tarjima sanʼati va oʻzbek tarjima maktabi anʼanalari bilan tanishtirish; bir asarning bir nechta tarjimalarini asl nusxa bilan solishtirish; oʻquvchilarning oʻzlari tomonidan qilingan satrlararo tarjimani badiiy tarjima bilan solishtirish va farqlarini aniqlash; oʻquvchilarga badiiy tarjima sanʼatida oʻzlarini sinab koʻrish imkoniyatini berish.

TADQIQOT NATIJALARI

Bolalar adabiyoti soʻz sanʼati va tarbiya vositasi hisoblanib, yosh kitobxonlar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kichkintoylar qalbida oʻy-fikrlar uygʻotadigan, porloq va ezgulik ishlariga ilhomlantiradigan boʻlishi kerak. Eng muhimi mavzular aniq, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi zarur. Yosh kitobxonni doimo sehrli-fantastik ertak, sarguzasht hikoya va asarlar qiziqtiradi. Bolalar adabiyoti oʻziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi.

Zotan, bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirleydi. Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir boʻlagi boʻlgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarining oʻrni, ahamiyati katta. Negaki tarjima asarlarini oʻqigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, oʻsha xalqlarning yashash sharoitlari, urf-odatlar, orzu-intilishlari bilan tanish boʻladilar. Adabiy taxallusi Mark Tven boʻlgan Semyuel Lengxorn Klemens Amerika demokratik adabiyotining yirik vakili, oʻz zamonasi burjua jamiyati illatlarini fosh etgan satirik va realist yozuvchidir.

Mark Tven asarlarini oʻqigan har bir kitobxonning millati va tilidan qatʼi nazar bu yozuvchining mahoratiga tan bermay iloji yoʻq. Yozuvchi asarlarini Oʻzbekistonda har bir shoir, yozuvchi hamda tarjimonlar oʻzbek tiliga tarjima qilib, yurtdoshlarimizni Mark Tven asarlaridan bahramand etgan. Ushbu yozuvchining noyob asarlaridan boʻlmish “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” hamda “Geklberri Finnning boshidan kechirganlari” sarguzasht asarlari butun dunyo bolalar adabiyotiga hamda hozirgi kun bolalar adabiyotiga ham oʻz hissasini qoʻshib kelmoqda. Ushbu sarguzasht asarlaridagi

yumorlar har qanday kitobxonni o'ziga rom aylaydi. Mark Tven bilan bizning yozuvchimiz G'afur G'ulom, garchi turli vaqtda hamda turli joyda yashagan bo'lsa ham, ularning asarlaridagi ba'zi tafsilotlar o'rtasida badiiy mushtaraklik mavjud.

MUHOKAMA

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va uning mantiqiy davomi bo'lmish "Geklberri Finnning boshidan kechirganlari" romanlari sayohatnoma janrida yozilgan sarguzasht adabiyot namunalaridir. Mark Tven "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asarini bolalik poeziyasi deb ataydi. Bu roman Mark Tven ijodida yangi davr boshlanganini ko'rsatadi.

Yozuvchi unda Amerikacha burjua jamiyati voqeligiga emas, balki o'tmishga o'zining yoshlik vaqtidagi hayotiga bolalarning "sof poetik" dunyosiga murojaat qiladi. Shunday bo'lsa ham Tom Soyer haqidagi bu roman o'z zamonasidan qochish degan ma'noni bildirmaydi. Aksincha, bu asar Mark Tven realistik mahoratining rivojida ma'lum bir bosqich hisoblanadi [1, 8].

Bolalar hayoti haqidagi bu kitobni yoshlar ham kattalar ham qiziqib o'qiydilar, chunki unda insonning ichki kechinmalari, dunyosi psixologik jihatdan asoslangan holda real voqealar beriladi. "Tom Soyerning boshidan kechirganlari"da voqealar asosan Sent-Pitersbergda, Missisipidagi orolchada ro'y beradi. Tom begonalar bilan ilk bor o'zi yashab turgan kichkina shaharcha – Sent-Pitersbergda duch keladi. Bu yoz kunlaridan birida, oqshomda ro'y beradi. Zero "kichkina, qashshoq shaharcha – Sent-Pitersbergda paydo bo'lgan har bir yoshdagi yangi odam Tomni qiziqtirar edi.

Roman qahramoni Tom kichik shaharda yashaydi. Xolasining beto'xtov nasihatlarini, maktabdagi quruq yod oldirishdan iborat eskicha o'qitish usullari zerikarli bo'lganidan u darslarga qiziqmaydi, mashg'ulot vaqtida boshqa narsalarni o'ynab o'tiradi. Uning sho'xligi va o'yinqaroqligi o'sha voqelikka norozilik bilan qarashdir. Tomning uysiz bola Gek Finniga havas bilan qarashi eskicha urf-odatlardan holi erkinlikka intilishi alomatidir.

Romanning kulgili lavhalari jiddiy voqealar bilan aralash davom etadi. Tom Gek bilan kechasi qabristonga borib hindu Jo tomonidan bir doktorning o'ldirilishi voqeasini ko'radilar, so'ngra qotilni topishda tegishli kishilarga ko'maklashadilar.

Asarda qanday qilib Tom yaxshi o'quvchi nomini olishi ham qiziq. U bolalardan so'rab olgan chipta asosida javob berib namunali o'quvchi sifatida taqdirlanadi. Lekin tavrotni sira ham o'qib ko'rmagan Tom unda ko'rsatilgan avliyolarni nomini to'g'ri ayta olmaydi. U butxona xutbalarini ham, ibodat qilish rasm-rusumlarini ham bilmaydi. Tom zerikarli bir ibodat vaqtida qo'ng'izni cherkovga qo'yib yuboradi. Qo'ng'iz kuchukka yopishib oladi u vankillab uyoq-buyoqqa chopganida ibodatchilar hushyor tortadilar [2, 58].

Tomning yosh Bekkiga nisbatan bolalarcha sevgisi kishida ham zavq ham yengil kulgi tug'diradi. Asar umuman odamda bolalarning o'ziga xos xarakterlariga nisbatan chin muhabbat uyg'otadi va ularning ichki dunyosini to'laroq tushunishga yordam beradi. Tom Soyerning boshidan kechirganlari asarining tarbiyaviy ahamiyati katta. U bolalarni do'stlik adolat tashabbuskorlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

"Geklberri Finning boshidan kechirganlari" (1884) romanida amerikacha hayotning yetuk ijtimoiy tanqidi, muruvvat va iltifotning manfaatparastlik va shafqatsizlik bilan yonma-yon mavjudligi ko'zga tashlanadi. Tom Soyer o'zga yurtlarni ko'rish, qaroqchilardek hayot kechirish ishtiyoqi bilan yonadi. Biroq, u uzoqqa keta olmaydi: u o'z boshidan kechirgan ham tashvishli, ham quvonchli voqealar asosan o'z yurtida, tug'ilib o'sgan maskanlar atrofida ro'y beradi. Gek ham piyonista otasi bilan uchrashganidan so'ng butunlay ko'chaga chiqib ketishga majbur bo'ladi.

Mark Tven Gek bilan Jimning Missisipi bo'ylab darbadarliklarini bayon qilar ekan, o'sha davr Amerikasining to'liq tasvirini yaratadi, o'zining turli vaqtlarda olgan taassurotlarini qahramonlarining tili va ko'zi bilan ifodalaydi. Romanning har bir bobi bir sarguzasht, kutilmagan voqea yoki to'qnashuv bayoniga bag'ishlangan.

Bu asar ham bolalar haqidagi ijod namunasi hisoblanadi. Geklberri sarguzashtlari xuddi Tom Soyerning sarguzashtlari asarining mantiqiy davomidek. Endi bu romanda bosh qahramon Tom emas ko'chalarda daydib yuruvchi yetim bola Gek Finnidir. U faqat shaxsiy erkinlikka intiluvchi bola bo'lmay, ham aqlan ham jismonan kamol topib borayotgan o'smir sifatida harakat qiladi.

Bu asarda Mark Tven grajdanlar urushiga qadar elliginchi yillardagi Amerika hayotini aks ettiradi biroq Tom Soyerdagi kabi bolalarning o'yini, kulgisi xushchaqchaq hayotini emas, aksincha, Amerikaning to's-to'polonli keyingi davr bilan bog'lanib ketuvchi hayotini yoritib beradi.

Bosh qahramon Gek erkinlikka intiluvchan yetim bola. U dindor beva ayol Duglas uyida tinchgina yashayverishi mumkin edi. Biroq biror kimsaga qaram bo'lib olishni istamasdi, shuning uchun uning uyidan chiqib ketadi va sarson sargardonlikda kezib yuradi.

Gek aroqxo'r otasining zulmidan qochib, shahardan ketayotganda qochoq negr Jemga duch keladi. Uni turli hayollar qurshab oladi. Janubda qulning qochishi qattiq jinoyat hisoblanar edi. O'sha muhit ta'siri ostida Gek Jemni ushlab bermoqchi bo'ladi, ammo bu yaramas tizim qoidalaridan undagi tabiiy odamiylik ustun chiqadi.

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Geklberri Finnning boshidan kechirganlari" romanlari hamda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi genetik yaqinlikka ega bo'lmagan ikki milliy adabiyot vakillari bo'lmish adiblarning asarlaridir.

Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" va "Geklberri Finnning boshidan kechirganlari" romanlari hamda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi turli zamonlarda, turli mamlakatlarda va turli janrlarda yaratilganiga qaramay ularni ko'p jihatlar birlashtirib turadi. Ular mavzu jihatidan ham, syujet – kompozitsion qurilishi jihatidan ham nisbatan yaqin va deyarli o'xshash. Ularda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshidagi AQSh va o'zbek bolalarining og'ir qismati haqida hikoya qilinadi.

Har ikkala adibning mahorati obrazlar yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shum bola bilan Omon Tom bilan Gekni yodga soladi.

Bu asarlarda realistik obrazlar yaratilgan. Jumladan, Tom Soyer ham, Geklberri Finn ham, Shum bola ham yetimchalar hisoblanadi. Tom kichik ukasi va singlisi bilan Polli xolasinikida yashaydi. Gekning onasi yo'q, otasi ham unga otalik qilmaydi. Shum bolaning ham otasi yo'q, u oilada katta farzand, bir ukasi va singlisi bor. Tom ham, Gek ham, Shum bola ham ertalabdan kechgacha ko'chada, tengdoshlari bilan daydib yuradi.

Har uchala asar ("Tom Soyerning boshidan kechirganlari", "Geklberri Finnning boshidan kechirganlari", "Shum bola")ning qahramonlari ham umidsizlik nimaligini bilishmaydi, ular kurashuvchan, intiluvchan, optimist va o'tkir hazilkash o'spirinlar.

XULOSA

Mark Tven romanlari bilan G'afur G'ulom qissasida qator mushtarakliklar, o'xshash sahnalar uchraydi. Adiblar dramatik va komik holatlarni yaratishda, personajlarning dialoglarini qurishda ayniqsa bir-birlariga yaqindirlar. Ayniqsa "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" bilan "Shum bola"ni deyarli har bir satrga singib ketgan yumor ham

birlashtirib turadi. Shuning uchun ham ta'lim dasturlariga aynan ushbu asarlardan foydalanish 6-7 sinf o'quvchilariga til o'rganishni osonlashtiradi va qiziqarli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.R. Boboyeva O'zbek va AQSh adabiyotida bolalikning badiiy talqini. – Toshkent, 2012.
2. F.Boynazarov Jahon adabiyoti. – T.: Musiq. 2006. – 159 b.
3. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: INNOVATSIYA-ZIYO, 2020.
4. G.Rahimova Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, - 308 b.
5. Yulduz I, Dilorom J. PROBLEMS OF TRANSLATING POETRY TEXTS AND USING OF SYMBOLS. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.;65.
6. Галъская Н.Д. Международное общение: проблема целей и содержания обучения иностранным языкам. Иностранные языки в школе. 2004. №1.
7. Исмадова Ю. Асарни бошқа миллий заминга кўчиришда таржимон шахсининг роли. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2018;3(2):67.
8. Исмадова Ю. Роль личности переводчика в переводе произведения на другой язык. Иностранная филология: язык, литература, образование. 2018 May 14;3(2 (67)):113-5.